



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI “O‘ZKOMNAZORAT” INSPEKSIYASI

B U Y R U G ‘ I

2025-yil 27-yanvar

13-son

**O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida
nazorat inspeksiyasining Ma’naviyat va ma’rifat
kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yish haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 27-oktabrdagi 283-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash, shuningdek Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasining (“O‘zkomnazorat” inspeksiyasi) Ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida, **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasining Ma’naviyat va ma’rifat kengashi tarkibi **1-ilovaga** muvofiq;

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasining Ma’naviyat va ma’rifat kengashi nizomi **2-ilovaga** muvofiq;

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasining Ma’naviyat va ma’rifat kengashining reglamenti **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Har yili Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan kelishilib, tasdiqlanadigan “O‘zkomnazorat” inspeksiyasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi tizimini yaratish bo‘yicha “Yillik kalendar reja” Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasining Ma’naviyat va ma’rifat kengashining ish rejasida qabul qilinsin.

3. “O‘zkomnazorat” inspeksiyasining markaziy apparati boshqarma va bo‘limlari, hududiy bo‘lim hamda shu’balari boshliqlari “Yillik kalendar reja” - ma’naviyat va ma’rifat kengashining ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlasinlar.

4. Boshliqning davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi (A. Matkarimov) “O‘zkomnazorat” inspeksiyasida ma’naviyat va ma’rifat borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini doimiy ravishda monitoring qilib borsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshliq



F. Rustamov